



## ZAVQIY IJODIDA KO‘MAKCHI SO‘Z TURKUMINING QO‘LLANILISHI

*Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 301-guruh talabasi*

***Ozoda Abdullayeva***

*ozodaa576.@gmail.com.*

*Tel:992230310*

Annotatsiya: Ushbu ishda XIX asr oxiri va XX asr boshi o‘zbek adabiyotining yirik vakili Ubaydulloh Zavqiy she’riyatida yordamchi so‘z turkumlarining (ko‘makchi) lisoniy va uslubiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Muallif shoirning lirik va satirik asarlarida yordamchi so‘zlarning nafaqat gap bo‘laklarini bog‘lash, balki badiiy tasviriy vosita sifatida tutgan rmini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: yordamchi so‘zlar, ko‘makchi, badiiy uslub, satira, lirik qahramon, sof ko‘makchilar, funktsional ko‘makchilar, bikin, turkum.

Abstract: This work studies the linguistic and stylistic features of auxiliary word groups (auxiliary) in the poetry of Ubaydullah Zavqi, a prominent representative of Uzbek literature of the late 19th and early 20th centuries. The author analyzes the role of auxiliary words in the poet's lyrical and satirical works not only as a means of connecting parts of speech, but also as an artistic means of expression.

Keywords: auxiliary words, auxiliary, artistic style, satire, lyrical hero, pure auxiliary, functional auxiliary, bikini, category.

Аннотация: В данной работе исследуются лингвистические и стилистические особенности вспомогательных словосочетаний (вспомогательных) в поэзии Убайдуллы Завки, видного представителя узбекской литературы конца XIX и начала XX веков. Автор анализирует роль



вспомогательных слов в лирических и сатирических произведениях поэта не только как средства соединения частей речи, но и как художественного средства выражения.

Ключевые слова: вспомогательные слова, вспомогательный, художественный стиль, сатира, лирический герой, чистый вспомогательный, функциональный вспомогательный, бикини, категория.

Ko'makchilarning mustaqil ma'noli so'zlardan farqi ko'makchilarda mustaqil leksik ma'no yo'q ekanligidagina emas, balki ko'makchilardagi leksik ma'no qandaydir o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular mustaqil ma'noli so'zlarga birikkandagina paydo bo'lishidadir.

Ma'lumki, vaqtning o'tishi bilan yangi ko'makchilar paydo bo'lib, ba'zi ko'makchilar iste'moldan chiqib ketadi. O'zbek tili tarixida ham ushbu holatni ko'rishimiz mumkin. T.Rustamov ko'makchilarning tarixiy taraqqiyotini shartli ravishda uchta davrga bo'ladi<sup>1</sup>:

1. XIII-XIV asr yozma yodgorliklari.
2. XV-XVI asr yozma yodgorliklari.
3. XVII-XX asrning boshlari yozma yodgorliklari.

Eski o'zbek adabiy tilida qo'llangan ko'makchilar ko'p o'rinda hozirgi o'zbek adabiy tilidagi ko'makchilarga o'xshaydi. Ularning qo'llanishi va ma'nolarida farq sezilmaydi. Biroq ayrim fonetik tafovutlar kuzatiladi. Eski o'zbek tiliga oid manbalar tilida qo'llangan ko'makchilarni dastavval ikki yirik guruhga ajratish mumkin:

1. Sof ko'makchilar
2. Funksional ko'makchilar.

<sup>1</sup> Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. –Toshkent:Nodirabegim,2021.-B.150.



Sof ko‘rnakchilarni mustaqil so‘z turkumidan ajrab chiqqan, mustaqil qo‘llanishi va leksik ma'nosini yo‘qotgan so‘zlar tashkil etadi.

Sof ko‘rnakchilar turli kelishikdagi so‘zlar bilan birga qo‘llanib, kelishik ma'nosini aniqlashtiradi yoki unga qo‘shimcha ma'no beradi, ba'zan esa kelishik vazifasini bajaradi. Eski o‘zbek tilida ham sof ko‘rnakchilarning ayrimlari bir xil kelishik bilan, ba'zilari esa turli kelishiklar bilan qo‘llangan.

Eski o‘zbek tilida iste'molda bo‘lgan sof ko‘rnakchilardan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: Uchun, birla, kibi, kebi, yanglig‘, yangliq, bikin, uzra, ichra, sari, taba, tabaru, tagi, tegru, sayi, sayu, sayin.

**Uchun** ko‘rnakchisi odatda bosh kelishikdagi so‘z bilan qo‘llanadi. Kishilik va ko‘rsatish olmoshlari esa ko‘pincha qaratqich kelishigida keladi: *menin (menim) üchün, seniñ üchün, aniñ üchün, bizniñ (bizin, bizim) üchün, sizniñ (siziñ) üchün, munun üchün* kabi.

Uchun ko‘rnakchisi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

### **1. Ataganlik ma'nosini bildiradi:**

Ilm uchun pulni ko‘zlari qiymas,

Kim bilur boru yo‘qu foydasi. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Ko‘p qiziq.- b.23.]

Shoir bu misrada jamiyatdagi ayrim kishilarning ilmni qadrlamasligi, pulni esa undan ustun qo‘yishini tanqid qiladi. “Uchun” ko‘rnakchisi sabab-maqсад munosabatini bildirib, ilm uchun pul sarflashga odamlarning ko‘zi qiymasligini ifodalaydi.

Uchun ko‘rnakchisi chun holida ham qisqarib qo‘llangan:



Otaning bo‘ynida yo‘q o‘g‘lini(ng) vafo tavqi,  
Onasi qiz bolasi-chun qachon kelur shavqi?

Misrada “chun” (uchun) ko‘makchisi atalganlik ma’nosini bildiradi. Shoir ona qiz bolasi uchun mehr va quvonch kutishini, ota esa o‘g‘lidan har doim ham vafo topa olmasligini ta’kidlaydi.

## 2. Sabab ma’nosini bildiradi:

Aqcha uchun kishi rohzan yomon bo‘lur,  
Bechora kosib ahliga, bilgil, ziyon bo‘lur. [Zavqiy. Tanlangan asarlar.  
Muncha ko‘p. -b.20]

Bu misrada “uchun” ko‘makchisi sabab ma’nosini bildiradi. Shoir pul uchun odam yomon yo‘lga kirib, talonchi bo‘lishi mumkinligini aytadi va buning oqibatida mehnatkash kosiblar zarar ko‘rishini ta’kidlaydi

## 3. Maqsad ma’nosini bildiradi:

Kir ko‘ylak o‘libdilar Umarjon,  
Sotmoq uchun emdi jun jiyakka. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Hajvi ahli rasta. -b.38]

Bu misrada “uchun” ko‘makchisi maqsad ma’nosini bildiradi. Umarjon eskirib, kir bo‘lib ketgan ko‘ylaklarni sotish uchun jun jiyakka olib kelgani aytiladi. Shoir bu holat orqali bozordagi savdo manzarasini kinoya bilan tasvirlaydi.

**Birla** (*birlan, hila, bilan*) ko‘makchisi. Bu ko‘makchi dastlab *birla* shaklida qo‘llangan bo‘lib, boshqa shakllari keyinchalik yuzaga kelgan.

XV asr va undan keyingi davrlarda, asosan, she’riy asarlarda bu ko‘makchi **ila** shaklida ham ancha keng qo‘llangan:

Sar daraxti mevasin ko‘r: zog‘ ila qarg‘oniki,



Demangiz, ahboblar, gul bulbul go‘yoniki. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Zamona kimniki? –b.11.],

Har ko‘chalarda qashshoq ila zor muncha ko‘p,

Tarhi jahon binosida badkor muncha ko‘p. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Muncha ko‘p. –b.19],

**Birla** ko‘makchisi odatda bosh kelishikdagi so‘z bilan qo‘llanadi.

Kishilik va ko‘rsatish olmoshlari ko‘pincha qaratqich kelishigida

keladi: *menil) (menim) birla, senil) birla, amI) birla, biznil)*

*(biZil), bizim) birla, siznil) (siZil)) birla, munw) birla* kabi.

*Birla* ko‘makchisi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

### **1. Birgalik ma'nosini bildiradi:**

Aybimni ash'or bitmasam,

Siz birla hamroh ketmasam, [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Afandilar, -b.34]

Bu misrada “birla” ko‘makchisi birgalik ma'nosini bildiradi. Shoir agar do‘stlari birla birga yurmasa va she'r yozmasa, o‘zini aybdor his qilishini ifodalaydi.

*Birla* ko‘makchisi birgalik ma'nosida qo‘llanganda ba'zan teng bog‘lovchiga o‘xshaydi. Lekin bunday o‘rinlarda ham birgalik ma'nosi ustun bo‘ladi. Masalan:

A‘lamni (ng) o‘g‘illari Olimjon

Hayf to‘n bila salla gungalakka.

Bu misrada “bila” (*birla*) ko‘makchisi birgalik ma'nosini bildiradi. Shoir Olimjonning to‘n bilan salla kiyib, ammo bunday kiyim unga yarashmayotganini kinoya bilan aytadi. Yoki:

Bir zarra rioya qil to‘ramni



Qo‘sh ramz suxan bilan ko‘makka.

Bu misrada “bilan” ko‘makchisi vosita ma’nosini bildiradi. Shoir biror fikrni ramzli so‘zlar bilan yordam berib ifodalash kerakligini ta’kidlaydi.

## **2. Vosita ma'nosini bildiradi:**

Istasangiz agar sayohatni,

Aqlingiz birla boring har yona. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Mullavachchalarga.-b.62]

Bu yerda “birla” so‘zi — birgalik, hamroh bo‘lish ma’nosini bildiradi. Shoir aytmoqchi: hayot yo‘lini, sayohatini yolg‘iz emas, balki aql bilan, ya’ni do‘stona maslahat, birgalikda yurgan hamroh bilan o‘tishi lozim.

Tavajjuh aylar edi har kechada shoxi bila,

Ota-ona va qarindoshimu pirim sigirim. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Sigirim. –b.67].

Bangu ko‘knor kayfi birlan hujrada qildim “g‘azot”,

Ko‘nglimi Mingtepedek obod qo‘ymas, pashshalar. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Pashshalar. –b.71]

Hech kim faqr ahliga jon birla qilmaydi savob,

Ag‘niyo ahliga anqo parcha non, bir tomchi ob. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Zamona kimniki? –b.11]

## **3. Holat, sabab kabi ma'nolarni bildiradi, ya'ni ish-harakatning**

qanday holatda yoki nima asosida yuzaga kelishi ko‘rsatiladi:

Sadaflar ko‘p og‘iz ochmak bilan ko‘ksi bo‘lur holi,

Ki ba’zisi labin kam vo qilib durri yagon bo‘ldi. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Nasihat. –b.74]



Birov siym-u zar ila o'limdan omon bo'lur,

Yetib murodga biri hokimi zamon bo'lur. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Muncha ko'p. –b. 19]

Solini andisha so'rab sa'y ila,

Aydi xirad qo'yiga izloshini. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Dar hajvi shoh Inoyat qo'rboshi. –b.44]

#### **4. Payt ma'nosini bildiradi.** Bunda birla ko'makchisi payt

ma'nosidagi so'zlar bilan keladi:

Ishq ahlini shaydo qilib, dushmanni ko'p rasvo qilib,

Ko'zlarni ham shahlo qilib, asr ila shom aylab keling. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Aylab keling. –b.80]

-Pinhoni zino gar qilsa kishi,

Na bo'lur tong-la mahsharda ishi? [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Voqiyayi qozi saylov. –b.55]

**Kibi/ /kebi, yanlig' (yanliq), bikin** ko'makchilari ma'nosiga ko'ra bir guruhni tashkil etadi, ya'ni bu ko'makchilar o'xshatish, qiyoslash kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu ko'makchilar odatda bosh kelishikdagi so'z bilan qo'llanadi. Kibi/ kabi, bikin ko'makchilari kishilik va ko'rsatish olmoshlarining qaratqich kelishigidagi shakli bilan ham qo'llanadi: mening kibi (kebi), sening kibi (kebi), munuq bikin kabi.

Kibi//kebi ko'makchisining qo'llanishi XIII-XIV asrlardan boshlab kuzatiladi:

Ilm-u junarlar o'rnig'a puldor to'ng bo'yin,



Uch-to'rti yig'ilib qilishur it kabi o'yin. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Muncha ko'p. –b. 19.]

Huzurig'a arz birla kelsa birovd,

Gurba yanglig' bo'lurki, poylab ov. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Voqiyayi qozi saylov. –b.56]

Ta'limi nopok gahi olib ko'r Ashurboydin,

Vaye mufti Hasanjon kabi badkor bo'lmay o'! [Zavqiy. Tanlangan asarlar. G'o'daslik boy haqida hajv. –b.53]

**Üzra ko'makchisi** (üza shaklida ham qo'llangan) ikki qismdan iborat: "yuza" ma'nosidagi üz so'ziga jo'nalish kelishigi affiksi -ra qo'shilishi bilan hosil bo'lgan. XV asrga qadar nasriy asarlarda ham, she'riy asarlarda ham qo'llangan bo'lib, undan keyingi davrlarda asosan she'riy asarlarda uchraydi, odatda bosh kelishikdagi so'z bilan qo'llanadi. Kishilik olmoshlari esa bu ko'makchi bilan ko'pincha qaratqich kelishigida qo'llanadi: mening üzra (üza), seniñ üzra, aniñ üzra, biziñ üzra, sizniñ üzra kabi.

Yana O'rmonbek otliq yaxshi farzandimdan ayrildim,

Boshimda toj, belim uzra- kamarbandimdan ayrildim. [Zavqiy. Tanlangan asarlar. Demish xon. –b. 98]

**Ichra ko'makchisi** ich so'ziga jo'nalish kelishigi affiksi

-ra qo'shilishi bilan hosil bo'lgan. Bosh kelishikdagi so'z bilan qo'llanadi. Bu ko'makchi XV asrdan boshlab she'riy asarlarda



qo‘llangan bo‘lib, undan oldingi davrlarda nasriy asarlarda ham uchraydi. Ichra ko‘makchisi asosan quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

**1. *Ish-harakatning biror narsa ichida sodir bo‘lishini ko‘rsatadi, ya'ni "ichida", "o‘rtasida" kabi ma'nolarni ifodalaydi:***

Vasiqa buzganim, albatta, boshimg‘a balo bo‘ldi.

Tushib el ichra g‘avg‘o shur-u sharga muftalo bo‘ldi. [Zavqiy.Tanlangan asarlar. Demish xon. –b. 99]

**2. *Ichra ko‘makchisi ba'zan ish-harakatning narsa ichiga yo‘nalishini ko‘rsatishda qo‘llanadi, ya'ni "ichiga" ma'nosini ifodalaydi:***

Urushni boshladi, qochdi, o‘zi bilmay muqobil ko‘r,

Pisib bilmamki ketdi Afg‘on ichra, balki Qobil ko‘r. [Zavqiy.Tanlangan asarlar. Farg‘ona. –b. 91]

Zavqiy she‘riyatida ko‘makchilar nafaqat grammatik bog‘lovchi vazifasini bajaradi, balki badiiy ifodaning muhim vositasiga aylanadi. “Uchun” sabab va maqsad munosabatlarini, “birla” birgalik va vosita ma'nolarini, “kabi” o‘xshatishni, “ichra” esa makon munosabatini ifodalab, shoirning satirik va lirik g‘oyalarini yanada ta’sirchan qiladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, yordamchi so‘zlar Zavqiy she‘riyatida faqat grammatik vosita emas, balki badiiy ifoda quroli sifatida ishlatilgan. Ular yordamida shoir o‘z fikrini aniqlik bilan yetkazgan, ohang va ritmni yaratgan, satira va lirik tasvirlarning ma'nosini kuchaytirgan.

Shuningdek, ko‘makchilarning tarixiy rivoji va turkumlanishi o‘zbek tilining leksik va grammatik jarayonlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Bu esa Zavqiy she‘riyatining lingvistik va uslubiy jihatlarini chuqurroq tadqiq etish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov G', Shukurov Sh, Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. –B.527.
2. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B.324.
3. Zavqiy. Tanlangan asarlar. –Toshkent: O'zSSR Davlat badiiy adabiyoti nashriyoti,1950. –B. 112.
4. Zavqiy. Ajab zamona. –Toshkent: Sharq, 2003. –B.174.